

**TA'LIM JARAYONLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING
O'RNI VA AHAMIYATI****Israilova Aygul Bayadilovna***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**Psixologiya ixtisosligi 1-bosqich magistranti**Aykoisrailova@gmail.com, +998909104364*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ta'lim tiziming eng muhim qismlaridan biriga aylanib borayotgan inklyuziv ta'limning ayrim xususiyatlari haqida so'z boradi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limga muhtoj insonlarning psixologik xususiyatlari haqida ham ayrim fikr-mulohazalar yuritiladi

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, davlat siyosati, ta'lim, bola tarbiyasi, salbiy munosabat, integratsiya.

Abstract: This article talks about some features of inclusive education, which is currently becoming one of the most important parts of the education system. In addition, some comments are made about the psychological characteristics of people who need inclusive education

Key words: Inclusive education, state policy, education, child upbringing, negative attitude, integration.

Аннотация: В данной статье говорится о некоторых особенностях инклюзивного образования, которое в настоящее время становится одной из важнейших частей системы образования. Кроме того, даются некоторые комментарии о психологических особенностях людей, нуждающихся в инклюзивном образовании.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, государственная политика, образование, воспитание детей, негативное отношение, интеграция.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, eng avvalombor, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni yotadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi ham hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida hozirda O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar, tizimli islohotlar amalga oshirib borilmoqda.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan

qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo’naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuziv ta’lim atamasi fransuzcha “inclusive” so’zidan olingan bo’lib “o’z ichiga oladi” degan ma’noni anglatadi va maxsus ehtiyojlari bo’lgan va shartli ravishda sog’lom, ya’ni sog’ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to’g’risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. “Inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamalari ko’pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada bu tushunchalar orasida farq bor. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta’lim tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta’lim olish jarayoni bir-biriga o’xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo’lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo’lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko’nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi [1].

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O’tgan davr mobaynida mamlakatimizda o’sib borayotgan avlodni sog’lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to’ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko’rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda inklyuziv ta’limni ham rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Bolaning tarbiya va o’quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o’zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro’y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to’g’ri ketmaketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog’ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g’oyani ilgari suradi. 2 Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o’simlikka o’xshatadi. «Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o’zo’zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi [2].

Inklyuziv ta’lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko’plab muammolar va to’siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiritishimiz mumkin: salbiy munosabat; hamjamiyatda ko’rinmaslik; moddiy mablag’ muammolari; qaramlik; jinsiy belgilarga qarab kamsitish shular jumlasidandir. Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta’lim muassasalari tizimida ta’lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to’siq bo’lsa kerak deb o’ylaymiz. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a’zolari, o’qituvchilar,

umumta’lim muassasalari xodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o’zlaridagi umumta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto’g’ri fikr, ular to’g’risida ma’lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o’sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko’rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko’pincha ko’plab maxsus ehtiyojli bolalar otaonalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko’rsatmaydilar, ro’yxatga olish jarayonida ham nogiron bolasi to’g’risida hech bir ma’lumot berilmaydi.

Imkoniyati cheklangan o’quvchilarga turli variantlarda ta’lim berish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Masalan: O’quvchining bilimlarni egallash imkoniyatini hisobga olgan holda cheklangan ta’lim beriladi. Bunday ta’limning mazmuni umumiy o’rta ta’limning mazmuniga muvofiq kelishi kerak. Bunda tengdoshlari orasida hamda ular bilan umumiy tarzda muayyan vaqt davomida o’qitish amalga oshiriladi. Bu jarayonda o’quvchilarni tizimli tarzda pedagogik- psixologik qo’llab-quvatlash talab etiladi. Mazkur yo’nalishda o’quvchilar o’z tengdoshlari orasida bo’lib, ular uchun cheklangan ta’lim olish imkoniyati yaratiladi. Bunda ularning rivojlanishi bilan bog’liq holda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish nazarda tutiladi. O’quv jarayoni va sinf xonasidagi shart-sharoitlar imkoniyati cheklangan o’quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq kelishi lozim. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni individuallashtirilgan, uning muddatlari esa cho’zilgan bo’ladi. Jumladan, ko’zi ojiz o’quvchilar uchun to’qqiz yillik umumiy o’rta ta’lim jarayoni o’n yil davom etishi mumkin. Masalan, tayanch harakat a’zolarida nuqsoni bo’lgan o’quvchilar uchun boshlang’ich ta’limning maqbul varianti sifatida umumiy o’rta ta’lim dasturlari yoki ruhiy jihatdan cheklangan o’quvchilar uchun tuzilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Integratsiyaning bunday shakli samarali bo’lib, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Bunda o’quvchilarning nutqi, muloqot imkoniyatlari, xatti- harakatlaridagi muammolar tengdoshlariniki bilan solishtiriladi. Ruhiy jihatdan orqada qolayotgan imkoniyati cheklangan o’quvchilardagi murakkab holatlar bilan oddiy holatlar orasidagi darajalanish sog’lom sinfdoshlarinikiga ko’ra boshqacha ko’rinishga ega bo’ladi. Shuning uchun ham o’quv jarayonida bunday o’quvchilar sinfdoshlaridan orqada qolishi yoki ulardan o’zib ketishi mumkin. Bu o’z navbatida o’quv dasturlariga o’zgarishlar kiritish, o’quvchilarga korreksion yordam ko’rsatish, intellektual yuklamalarni ko’paytirish, ularning imkoniyatlarini cheklamagan holda dastur doirasidan tashqariga chiqishni taqozo qiladi [3].

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo’lishlari uchun oilada yashashlari va o’z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o’zlashtirishda qiynalayotgan bo’lsa, o’qish va yozishga o’rganish uchun maxsus yordamga ega bo’lishi, darslarga qatnamay qo’yan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli

yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Xulosa o‘rnida yana shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim to‘g‘ri tanlovdir, negaki bolalar uyda yoki maxsus muassasalarda ta’lim olgandan ko‘ra oddiy maktabda o‘z tengdoshlari bilan ta’lim olganda ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi, ta’lim samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Uyda ta’lim olgan bolalar jamiyatdan uzulib qoladi, ko‘pchilikka qo‘shilolmay odamovi bo‘lib qolishadi. Maxsus muassasalarda ta’lim olgan bolalarning ko‘pchiligi esa bilim darajasi past bo‘lib qolishi, yoki o‘qishga qiziqishi pasayishi mumkin, sababi u yerda undan ham rivojlanishda orqada qolgan bolalar bo‘lishi mumkin, baribir muhit katta ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Musurmonova, O.. “Umumiy pedagogika”. Yoshlar nashriyot uyi, 2020-yil — 48-49 b.
2. Vygotskiy L.S. Kamchilik va ortiqcha kompensatsiya. // "Defektologiya muammosi". Moskva-1996. 42-b.
3. Matupayeva Sh.Z. “Inklyuziv ta’limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati”. 6-b